

**SHAVKAT RAHMONNING “JANGDA OLGAN EMAS BIROR BAHODIR”
SHE'RINING TA'LIMIY TAVSIFI**

Aminova Rayxon Alisher qizi

*SharofRashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Markaziy Osiyo xalqlari tillari
va madaniyati instituti 4-bosqich 401-guruh talabasi
e-mail:aminovarayhon4@gmail.com*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Shavkat Rahmon ijodining ijtimoiy-falsafiy yo'nalishi, ayniqsa “Jangda olgan emas biror bahodir” she'ri asosida bahodir obrazi va xiyonat motivining badiiy talqini tahlil qilinadi. She'rda bahodirlarning jang maydonida emas, balki xiyonat, adolatsizlik va tarixiy zulm tufayli halok bo'lishi haqidagi g'oya XX asr o'zbek ziyolilari — jadidlar taqdiri bilan qiyoslanadi. Shuningdek, shoirning shu ruhdagi “Yashamog'im zarur...” satrlari orqali haqiqat uchun kurash, vaqtning qadriga yetish, milliy vijdon oldidagi mas'uliyat kabi g'oyalar poetik jihatdan sharhlanadi. Mazkur ikki she'r o'rtasidagi mazmuniy bog'liqlik — bahodirlarning halokati va ularning orzusini davom ettiruvchi avlodning mas'uliyati — badiiy konsepsiya sifatida asoslab berilgan. Maqola Shavkat Rahmon poetikasida milliy ongning uyg'onishi, ma'rifatparvarlik ruhining davomiyligi va tarixiy xotiraning aks etish usullarini ochib beradi.*

Kalit so'zlar: *An'ana, bahodir, obraz, xiyonat, motiv, jadidlar, poetik tahlil, haqiqat, timsol, ma'rifatparvarlik, g'oya, adolat, fojia.*

Shavkat Rahmon — XX asr oxiri o'zbek she'riyatining o'ziga xos lirik, estetik yo'nalishini yaratgan, milliy ruh va ma'naviy uyg'onish g'oyalarini teran ifodalagan shoirlardan biri. Uning ijodida tarix, vatan, halollik, adolat, xiyonat va haqiqat kabi mavzular alohida o'rin tutadi. Shoirning “Jangda o'lgan emas biror bahodir ...” satrlari bilan boshlanuvchi she'ri o'zbek xalqining tarixiy xotirasini qayta jonlantiruvchi va bahodir obrazining mazmun-mohiyatini yangicha yorituvchi poetik matn sifatida ajralib turadi. Maqolada ushbu she'rning badiiy tahlili, undagi bahodir obrazining poetik talqini, shuningdek, asar g'oyaviy maqsadi ilmiy yondashuv asosida tahlil qilinadi.

She'rning asosiy g'oyasi — bahodirlarning jangda emas, balki xiyonat natijasida halok bo'lishi haqidagi fikrga qurilgan. Shoir tashqi dushmani emas, balki ichki nomardlikning xalq fojearidagi rolini poetik tarzda ochib beradi. Bu fikr she'rning birinchi bandidayoq yorqin ifoda etiladi:

Jangda o'lgan emas biror bahodir,

Bari halok bo'lgan xiyonatlardan..[4;64 b.]

Shavkat Rahmon xiyonatni tarixiy fojearlarning markazida turuvchi kuch sifatida talqin etadi va bahodirning o'limi orqali jamiyatning ma'naviy buzilishini ko'rsatadi. She'rda bahodir obrazi insoniy fazilatlarining eng yuksak cho'qqisi sifatida tasvirlanadi. Shoir bahodirni oddiy jangchi emas, balki mardlik, poklik, halollik, sadoqat, fidoyilik kabi

fazilatlarning jamlanmasi sifatida ko'rsatadi. Bahodirning qudrati mifologik obrazlar orqali kuchaytiriladi:

Biror asotirda bahodirlarni

Hattoki yuz boshli ajdar yemagan..[4;64 b.]

Bu satrlarda bahodirni hatto afsonaviy kuchlar yenga olmaydigan timsol darajasiga ko'taradi. She'ning navbatdagi bandlarida bahodirning yiqilishi manzarasi tasvirlanadi. Tashqi kuch emas, balki aynan orqadan sanchilgan xanjar, ya'ni xiyonat uni halok qiladi. Bu bilan shoir xalqning eng katta dushmani sifatida qo'rqqoqlik va nomardlikni ko'rsatadi.

Adabiy an'anaga ko'ra, pafosli bahodirlar yov bilan olishib halok bo'ladi. Biroq Shavkat Rahmon bu stereotipni rad etadi. Shoirning tahliliga ko'ra, xalq bahodiri hech qachon jasoratda yengilmaydi — uni yengadigan kuch faqat yashirin xiyonat bo'lishi mumkin. Do'st bo'ib ichingga kirgan, yoki do'st bo'lib yoningda turganlar xiyonati. Bu yondashuv she'rga falsafiy teranlik beradi.

She'rda eng ijobiy his beradigan nuqtasi — bahodirning xalq bolalarining ko'zida qayta tirilishi haqidagi satrlardir:

Har gal bahodirlar yiqilar ekan kurakka sanchilgan nomard tig'idan,

Qayta tirilganday bo'lardi nogoh har bir bolakayning qorachig'ida. [4;64 b.]

Bu tasvirning poetik vazifasi juda muhim: xalq ruhiyati o'lmaydi, bahodirlar yashaydi, avlodlar esa uni davom ettiradi. Shoir xalqning eng fojeali pallalarini tasvirlar ekan, avlodlar ko'zida bahodirning qayta tirilishi orqali umid, davomiylik va milliy ruhning o'lmasligini ta'kidlaydi.

She'rda bahodir obrazi aniq bir tarixiy shaxsga emas, balki XX asr boshidagi o'zbek milliy uyg'onish davri ziyolilariga umumlashtirilgan badiiy ishora sifatida talqin etishimiz mumkin. She'ning markaziy g'oyasi — bahodirlarning jang maydonida emas, balki "xiyonat", "orqadan sanchilgan xanjar", "zahar qo'shilgan ziyofatlar" kabi ramziy satrlar orqali ifodalangan ichki qo'rqqoqliklar va siyosiy zulm oqibatida halok bo'lishi — aynan jadid ziyolilari fojeasi bilan bevosita bog'liq.

XX asrning 20–30-yillarida Fitrat, Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Behbudiy, Munavvarqori va yana yuzlab ma'rifatparvarlar xalqning ma'naviy uyg'onishi uchun kurashgan bo'lsalarda, ular jangda emas, balki ayblov, tuhmat, qo'rqqoqlik va siyosiy xoinlik natijasida yo'q qilingan. She'rda bahodirni "ajdarlar", "devlar", "yalmog'izlar" ham yenga olmagan, balki uni "nomard tig'i" qulatkani — bu tarixiy haqiqatning poetik talqinidir. Shoir aynan shu mazmunda bahodir qiyofasi orqali ma'rifat yo'lida halok bo'lgan ziyolilarni millat fojiasining umumlashtirilgan timsoli sifatida tasvirlagan bo'lishi mumkin. Demak, she'rdagi bahodir aniq bir shaxs emas, balki XX asr boshlarida siyosiy zulm qurboni bo'lgan o'zbek jadid ziyolilarining umumlashtirilgan timsolidir. Fitrat, Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Behbudiy, Munavvarqori va yana ko'plab ma'rifatchilar jangda emas, balki: siyosiy ayblovlar, tuhmat, qo'rqqoqlik, xabar beruvchilar xiyonati, soxta sud jara yonlari natijasida halok bo'lgani tarixiy haqiqatdir. Shoirning:

Birorta bahodir o'lganmas jangda,

Qo'rqoqlar o'ldirgan bahodirlarni.[4;64 b.]

– satrlari aynan shu avlod fojiasining poetik ifodasidir. Ma'rifatparvarlarimiz xalqning milliy ongini uyg'otishga, ma'rifat, ozodlik va taraqqiyot g'oyalarini yoyishga harakat qilgan edi. Ularning bu faoliyati mustamlakachilik tuzumining eng katta xavf sifatida baholadilar. Jadidlarning xalqni savodsizlikdan qutqarish, dunyoqarashini kengaytirish, milliy o'zlikni anglashga yetaklash yo'lidagi sa'y-harakatlari hukmron siyosiy doiralarda qo'rquv uyg'otgan. Zero, milliy ongning uyg'onishi xalqni mustamlaka bosimini tanqid qilishga, erksizlikka qarshi kurashga olib kelishi aniq edi. Shoirning “qo'rqoqlar” atamasi shu jarayonda bevosita yoki bilvosita ishtirok etgan, milliy uyg'onishdan qo'rqan, zulm tizimiga yon berib xalq ma'rifatini o'ldirgan qatlamni anglatadi.

Bahodir esa she'rda o'z hayotini ma'rifat, taraqqiyot va adolat yo'liga fido qilgan jadidlar avlodining umumiy timsoli sifatida gavdalanadi. Ularning halokati jangda emas, balki milliy uyg'onishdan qo'rqan kuchlarning xiyonati oqibatida yuz berganligi — satrning asosiy tarixiy zamirini tashkil etadi. Demak, “Qo'rqoqlar o'ldirgan bahodirlarni” satri jadid ma'rifatchilarining fojiali qismati, ularning milliy ongni uyg'otish yo'lidagi jasoratini yuqori baholash va ularning yo'q qilinishiga sabab bo'lgan qo'rqoqlik va xoinlikni qoralash ma'nosida jaranglaydi. Bu satr shoirning millat tarixidagi eng og'riqli haqiqatni badiiy timsollar orqali ishonarli va teran ochib berishiga xizmat qiladi.

She'rning yakunidagi umid uyg'otuvchi ushbu satrlar shoirning asosiy maqsadini ochadi: bahodirlarning ruhi o'lmaydi, ular millatning har bir avlodida qayta tiriladi, davom etadi. Natijada mazkur she'r Shavkat Rahmon ijodida milliy ong, xalq xotirasi va ma'naviy qadriyatlarni poetik talqinda ifodalovchi eng teran asarlardan biri sifatida baholanadi. Shavkat Rahmonning:

Yashamog'im zarur,

Har daqiqani

G'azab bilan sevgi bilan to'ldirib...[3;72 b]

deya boshlanadigan she'ri ham shoirning ijtimoiy-falsafiy ruhini, milliy tafakkur oldidagi mas'uliyatini mujassamlashtirgan asarlaridan biridir. Bu she'rning bosh g'oyasi — insonning yashashi shunchaki nafas olib turish emas, balki haqiqat uchun kurash bilan mazmun kasb etishi g'oyasidir.

Dunyodagi barcha qora narsani yorug' lahzalarda o'ldirib tokim bosh ko'tarib qaray quyoshga, tokim ko'zlarimda yonsin haqiqat [3;72 b.]

Bu satrlar “bahodir” obrazining ichki davomidir — bunda endi jang maydonidagi qahramon emas, ruhiy jang maydonidagi bahodir tasvirlanadi.

“Jangda o'lgan emas biror bahodir...” she'rida shoir bahodirlarning xiyonat tufayli halok bo'lishini aytgan bo'lsa, bu she'rda esa shoir bahodirning davomchisi sifatida o'z avlodini ko'rsatadi: bahodirlar o'lgan, lekin haqiqatni davom ettirish uchun yashash zarur. Yashashning o'zi – milliy xotira oldida mas'uliyatli harakat sifatida talqin etiladi. Bu she'r ayniqsa jadid ziyolilarining taqdiri bilan mos tushadi. Chunki: ular ham “har bir daqiqani sevgi va g'azab bilan to'ldirib” yashagan — xalqiga muhabbat, zulmga g'azab bilan.

“Dunyodagi qora narsani yorug‘ lahzalarda o‘ldirish” — jadidlarning ma‘rifat orqali zulmni yengishini eslatadi.

“Tokim ko‘zlarimda yonsin haqiqat” — jadidlarning maqsadi: xalq ko‘zini ochish, haqiqat nurini yoyish edi.

“Men yashay olmagan har bir daqiqa” — jadidlarning qisqa, ammo mazmunli umrlarini eslatadi; ular yashashga ulgurmagan, ammo davomchilar yashashi zarur.

Shu tariqa, she‘r shoirning o‘z avlodiga murojaati sifatida o‘qiladi: bahodirlar halok bo‘lgan, ammo ularning orzusi biz yashaganimiz bilan tirik qoladi. Bu she‘r avvalgi tahlildagi fikrni boyitadi: bahodirlar xiyonat qurboni bo‘lgan bo‘lsa, ularning orzusi davomchilar zimmasiga o‘tadi. Davomchilar esa — haqiqatni saqlab yashaydigan yangi avloddir. Jadidlar o‘ldirilgan bo‘lsa-da, ularning: milliy uyg‘onish, ma‘rifat, haqiqat, xalqni uyg‘otish kabi ulkan niyatlari bugungi avlodning “yashash majburiyati”ga aylangan.

Shavkat Rahmon ijodi milliy ong va tarixiy xotiraning poetik talqinida alohida o‘rin tutadi. Uning “Jangda o‘lgan emas biror bahodir” she‘ri tarixda ko‘plab bahodirlarning jangda emas, balki xiyonat, jaf va adolatsizlik tu fayli halok bo‘lganligini ko‘rsatadi. Bu esa bevosita XX asr o‘zbek jadid ziyolilari — Fitrat, Behbudiy, Cho‘lpon, Avloniy kabi ma‘rifat fidoyilarining fojeali taqdirini badiiy obraz darajasiga ko‘taradi.

Shoirning “Yashamog‘im zarur...” she‘rida esa davomiylilik g‘oyasi, haqiqatni saqlab yashash mas‘uliyati va milliy uyg‘onish ruhiyati o‘z ifodasini topadi. Bu ikki she‘r mazmunan bir-birini to‘ldirib, bahodirlar o‘ldirilsa ham, ularning orzusi va maqsadi keyingi avlod tomonidan davom ettirilishi zarurligini ta‘kidlaydi. Shunday qilib, Shavkat Rahmon poetikasida bahodirlik — jismoniy kuch emas, balki ma‘naviy, axloqiy jasorat sifatida talqin etiladi. Shoir badiiy fikri orqali millatning o‘tmishi, buguni va ertasiga oid g‘oyalar bir butun poetik konsepsiya sifatida shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov. Yuksak ma‘naviyat yengilmas kuch. Ma‘naviyat, T.: 2008. B.176.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil 24-maydagi PQ-2995-son “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.
3. Shavkat Rahmon. Gullayotgan tosh. She‘rlar. — T.: Yosh gvardiya, 1985. — 64 b.
4. Shavkat Rahmon. Rangin lahzalar. She‘rlar. — T.: Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1978 — 72 b.
5. To‘xliyev B. Adabiyot o‘qitish metodikasi. — T.: Yangi asr avlodi, 2006.
6. Nusrat Rahmat. Jadid. — Toshken: Noshirlik yog‘dusi, 2020. — 296 b.
7. Mahmudxo‘ja Behbudiy. A‘molimiz yoinki murodimiz // Oyina.
8. Салим Ашур. Ўзгараётган бадий тафаккур // Ёзувчи, 1997. 30 июль.